



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

QASHQADARYO VILOYATINING 2010-2024-YILLARDAGI TASHQI IQTISODIY ALOQALARI TARIXI

Raximov Baxtiyor Soatovich

Qarshi shahridagi Prezident maktabi, o'qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatining 2010–2024-yillardagi tashqi iqtisodiy aloqalari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda viloyatning tashqi savdo aylanmasi dinamikasi, eksport va import tarkibidagi o'zgarishlar, asosiy savdo hamkorlari geografiyasi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi o'rganilgan. Statistik ko'rsatkichlarning qiyosiy va davriy tahlili asosida viloyat tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanish bosqichlari aniqlanib, ularning hudud iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri baholangan.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo viloyati, tashqi iqtisodiy aloqalar, tashqi savdo aylanmasi, eksport, import, xorijiy investitsiyalar, statistik tahlil.

ИСТОРИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В 2010–2024 ГОДАХ

Рахимов Бахтиёр Соатович

Президентская школа города Карши, преподаватель

Аннотация

В данной статье на основе статистических данных анализируются внешнеэкономические связи Кашкадарьинской области в 2010–2024 годах. В исследовании рассматриваются динамика внешнеторгового оборота региона, изменения в структуре экспорта и импорта, география основных торговых партнёров, а также объём прямых иностранных инвестиций. На основе сравнительного и динамического анализа статистических показателей определены этапы развития внешнеэкономических связей региона и дана оценка их влияния на экономическое развитие области.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, внешнеэкономические связи, внешнеторговый оборот, экспорт, импорт, прямые иностранные инвестиции, статистический анализ.

THE HISTORY OF FOREIGN ECONOMIC RELATIONS OF THE KASHKADARYA REGION IN 2010–2024

Rakhimov Bakhtiyor Soatovich

Presidential School in Karshi, Teacher

Abstract

This article analyzes the foreign economic relations of the Qashqadaryo region during 2010–2024 based on statistical data. The study examines the dynamics of the region's foreign trade turnover, changes in the structure of exports and imports, the geography of major trading partners, and the volume of foreign direct investment. Based on comparative and dynamic analysis of statistical indicators, the stages of development of the region's foreign economic relations are identified, and their impact on regional economic development is assessed.

Keywords: Qashqadaryo region, foreign economic relations, foreign trade turnover, export, import, foreign direct investment, statistical analysis.

Globalashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda hududlarning tashqi iqtisodiy aloqalari ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining hududlarini jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi, eksport salohiyatini oshirish, investitsiyalarni jalb etish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Shu nuqtai nazardan, Qashqadaryo viloyatining tashqi iqtisodiy aloqalari tarixini o'rganish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur viloyat tabiiy resurslarga boyligi, sanoat va qishloq xo'jaligi salohiyati hamda geografik joylashuvi bilan respublika iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. 2010–2024-yillar oralig'ida viloyatda

amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, eksport-import operatsiyalarining kengayishi, xorijiy investitsiyalar hajmining ortishi hamda xalqaro savdo hamkorliklarining rivojlanishi hududning tashqi iqtisodiy faoliyatida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Mazkur davrda mamlakatda olib borilgan iqtisodiy liberallashtirish siyosati, biznes muhitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi hamda eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilishi Qashqadaryo viloyatining xalqaro iqtisodiy aloqalarini kengaytirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, hududda neft-gaz sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti va qayta ishlash sanoatining rivojlanishi tashqi savdo ko'rsatkichlarining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Mazkur mavzuni o'rganish nafaqat hududiy iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini chuqurroq anglash, balki kelgusida tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, tashqi savdo munosabatlarining erkinlashuvi va investitsion siyosatning faollashuvi mamlakat hududlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishiga sabab bo'ldi. Xususan, Qashqadaryo viloyati sanoat, yoqilg'i-energetika va qishloq xo'jaligi salohiyatiga ega hudud sifatida mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalar tizimida o'ziga xos muhim o'ringa ega bo'ldi. 2010–2024-yillar davomida viloyatning tashqi savdo aylanmasi, eksport-import tarkibi hamda xorijiy investitsiyalar oqimida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Tadqiqot doirasida arxiv materiallari va statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, ularga ilmiy jihatdan yondashildi. Tahlil qilingan manbalar shuni ko'rsatadiki, XX asrning 90-yillariga nisbatan XXI asrning ikkinchi o'n yilligida Qashqadaryo viloyatining tashqi savdo aloqalari sezilarli darajada rivojlangan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Mazkur tadqiqot Qashqadaryo viloyatining 2010–2024-yillardagi tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishini tarixiy jarayon sifatida o'rganishga qaratilgan bo'lib, tarix faniga xos umumilmiy va maxsus metodlar asosida amalga oshirildi. Manbashunoslik yondashuvi asosida arxiv materiallari va statistik ma'lumotlar qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Tadqiqotda tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tarixiylik tamoyili asosida tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanish bosqichlari o'rganildi. Statistik tahlil yordamida tashqi savdo ko'rsatkichlari, eksport-import hajmlari hamda xorijiy investitsiyalar dinamikasi aniqlashtirildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali turli yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlar o'zaro solishtirildi.

Qashqadaryo viloyatining 2010-yildagi tashqi savdo aylanmasi 431984,7 ming AQSH dollarini tashkil etgan. MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 138880,9 ming AQSH dollarini, uzoq xorijiy davlatlar bilan esa 293103,8 ming AQSH dollarini tashkil etgan. Eksport hajmi 337609,1 ming AQSH dollarini, import hajmi esa 94375,6 ming AQSH dollarini tashkil qilgan. Eksport tarkibida asosan paxta tolasi, kimyo mahsulotlari, energetika manbalari, oziq-ovqat mahsulotlari, xizmatlar hamda mashina va uskunarlar yetakchi o'rin egallagan. Import tarkibida esa mashina va uskunarlar, oziq-ovqat mahsulotlari, kimyo mahsulotlari, rangli va qora metall mahsulotlari hamda energetika manbalari asosiy ulushni tashkil etgan. 2010-yilda viloyatda xorijiy sarmoya ishtirokidagi 56 ta korxonalar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ulardan 45 tasi faoliyat yuritgan [1]. 2014-yilda viloyat tashqi savdo aylanmasi 637389,7 ming AQSH dollariga yetdi. Bu davrda eksport hajmi 323384,7 ming AQSH dollarini, import hajmi esa 314005 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning kengayishi xorijiy investitsiyalar oqimining ortishi va ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi bilan bog'liq bo'ldi [2]. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan yangi tashqi siyosatning asosiy tamoyillari — ochiqlik, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va investitsion muhitni yaxshilash — hududlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada Qashqadaryo viloyatining xalqaro savdo geografiyasi kengayib bordi. 2017-yilda viloyatning tashqi savdo aylanmasi 543,6 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Bu davrda Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Eron Islom Respublikasi, Avstriya va Qozog'iston asosiy savdo hamkorlari sifatida namoyon bo'ldi [3]. Shu yilda viloyatda 57 ta xorijiy investitsiya asosida tashkil etilgan korxonalar ro'yxatga olingan bo'lib, ulardan 54 tasi faoliyat yuritgan [4]. 2020-yilda Qashqadaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi 544,2 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Jumladan, eksport hajmi 196,5 mln AQSH dollarini, import hajmi esa 347,7 mln AQSH dollarini tashkil qilgan. Viloyat tashqi savdo aylanmasida Xitoy (21,5 %), Rossiya (20,0 %), Turkiya (9,6 %) va Qozog'iston (8,5 %) yetakchi hamkor davlatlar sifatida qayd etildi [5]. 2020-yil holatida viloyatda 220 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritgan bo'lib, ulardan 155 tasi qo'shma korxonalar, 65 tasi esa xorijiy korxonalar edi [6]. Bu ko'rsatkich hududning investitsion jozibadorligi ortib borayotganini ko'rsatadi. 2024-yilda Qashqadaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi 1146,9 mln AQSH dollariga yetdi. Viloyat jahonning 80 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirdi. Tashqi savdo aylanmasida Xitoy Xalq Respublikasi (23,7 %), Turkiya (20,5 %), Rossiya (9,1 %), AQSH (3,4 %), BAA (3,4 %), Pokiston (3,6 %), Germaniya (3,2 %) va

Yaponiya (3,1 %) salmoqli ulushga ega bo'ldi [7]. Viloyatda 2024-yilda xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 79 tasi qo'shma korxonalar, 61 tasi esa xorijiy korxonalar bo'lgan [8]. Bu esa viloyatda investitsion faoliyatning izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Mazkur davrda viloyatga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli oshdi. Xususan, energetika, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi va infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan investitsiyalar hududning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qildi. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining tashkil etilishi investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy hamkorlar bilan qo'shma korxonalar sonini ko'paytirish imkonini berdi. Biroq, olib borilgan tahlillar ayrim muammolar mavjudligini ham ko'rsatadi. Jumladan, eksport geografiasining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi, mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligining pastligi, logistika va transport infratuzilmasidagi kamchiliklar tashqi iqtisodiy aloqalarning to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shuningdek, kichik va o'rta biznes subyektlarining eksport faoliyatidagi ishtiroki hali ham yetarli darajada emas. Muhokama natijalariga ko'ra, tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur: eksport mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish; logistika tizimini takomillashtirish va transport infratuzilmasini rivojlantirish; xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay biznes muhitini yaratish; kichik va o'rta biznes subyektlarini eksport faoliyatiga faol jalb qilish. Umuman olganda, mustaqillik yillarida viloyatning tashqi iqtisodiy aloqalari yildan yilga yaxshilanib bordi. 1992-yilda viloyatda xorijiy kapital ishtirokida 7 ta qo'shma korxonalar tashkil etilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bunday korxonalar soni qariyb 20 baravarga ortib, 140 taga yetgan. Bu esa Qashqadaryo viloyatining xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish borasidagi imkoniyatlari yuqori ekanligini ko'rsatadi. 2010–2024-yillar davomida Qashqadaryo viloyatining tashqi iqtisodiy aloqalari ijobiy dinamikaga ega bo'lib, hududning iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shdi. Shu bilan birga, mavjud muammolarni bartaraf etish va yangi imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali ushbu yo'nalishda yanada barqaror va samarali natijalarga erishish mumkin.

XULOSA. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 2010–2024-yillar davomida Qashqadaryo viloyatining tashqi iqtisodiy aloqalari izchil rivojlanib, hudud iqtisodiyotining muhim drayverlaridan biriga aylandi. Ushbu davrda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, eksport-import operatsiyalarining kengayishi, xorijiy investitsiyalar oqimining ortishi hamda xalqaro hamkorlik aloqalarining mustahkamlanishi viloyatning iqtisodiy salohiyatini sezilarli darajada oshirdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, viloyatda eksport tarkibining bosqichma-bosqich diversifikatsiyalanishi, qayta ishlash sanoatining rivojlanishi va ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, import tarkibida yuqori texnologiyali uskunalar ulushining ortishi hududda sanoatni modernizatsiya qilish jarayonlari bilan uzviy bog'liq ekanligi aniqlandi. Biroq, mavjud imkoniyatlarga qaramay, ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, eksport geografiasining yetarli darajada kengaymaganligi, mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi pastligi, logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda kichik va o'rta biznes subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ulushining kamligi ushbu sohaning to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu munosabat bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish uchun yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish, zamonaviy logistika tizimini shakllantirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Shuningdek, kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash orqali ularning eksport faoliyatidagi ishtirokini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, Qashqadaryo viloyatining tashqi iqtisodiy aloqalari ijobiy rivojlanish tendensiyasiga ega bo'lib, ushbu yo'nalishda tizimli va kompleks yondashuvni davom ettirish orqali hududning global iqtisodiy makondagi o'rnini yanada mustahkamlash mumkin. Mazkur tadqiqot natijalari hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali boshqarish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qashqadaryo viloyati pasporti. – 2008–2010-yillar. – B. 15–16.
2. Qashqadaryo viloyati pasporti. – 2011–2014-yillar. – B. 15–16.
3. Qashqadaryo viloyatining statistik axborotnomasi. – 2017. – B. 1–5.
4. Qashqadaryo viloyatining statistik axborotnomasi. – 2017. – B. 8.
5. Qashqadaryo viloyatining statistik axborotnomasi. – 2020. – B. 1–8.
6. Qashqadaryo viloyatining statistik axborotnomasi. – 2020. – B. 10.
7. Qashqadaryo viloyatining statistik axborotnomasi. – 2024. – B. 105.
8. Qashqadaryo viloyatining statistik axborotnomasi. – 2024. – B. 141.